


## 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.


2019-yil 1-noyabr holatiga ko'ra 25,5 mingga yaqinq faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 15,6 mingdan ortiq korxona va tashkilotlar jalb qilingan.

**2019-yil 1-noyabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiy sonida  
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan  
korxona va tashkilotlarning ulushi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar va korxonalar umumiyligi sonining 10,7 mingta korxona va tashkilotlar kichik biznes sub'ektlarini tashkil etadi. 2019-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 68,3 % tashkil etdi.

**2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasiga jalg qilingan,  
kichik korxona va mikrofirmalarning ulushi, %**



2019-yil 1-noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi (38,7 %) yuqori.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi (7,5 %)ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiyligi sonidagi ulushi (5,7 %)ni tashkil etdi.

Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida xizmat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi (3,8 %)ni tashkil etdi.

Axborot va aloqa xizmatlari sohasida xizmat ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlarning ulushi (1,9 %)ni tashkil etdi.


**2019-yil 1-noyabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, %  
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)**



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 7 088,3 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 111,9 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlaganda moliyaviy xizmatlarga (13,7%), transport xizmatlariga (22,8%), aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga (5,0%), savdo xizmatlariga (32,6 %) yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

## 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibi, %



2019- yil yanvar-oktyabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 1 382,0 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-sentyabr oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 860,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

## 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida ayrim xizmat turlari hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm



Joriy yilning oldingi davri (yanvar-sentyabr oylari)ga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari (274,7 mlrd. so'mga), transport xizmatlari (186,7 mlrd. so'mga), moliyaviy xizmatlar (111,0 mlrd. so'mga) hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar (67,0 mlrd. so'mga) hajmining oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


**Ma'lumot uchun:** 2018-yilning mos davriga nisbatan savdo xizmatlari– 377,7 mlrd. so'm, transport xizmatlari– 291,8 mlrd. so'm, moliyaviy xizmatlar– 337,9 mlrd. so'm, ta'lim sohasidagi xizmatlar– 51,2 mlrd. so'mga oshgan.

**2019-yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari  
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>7 088,3</b>	<b>111,9</b>
<b>shu jumladan:</b>		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	357,9	113,4
moliyaviy xizmatlar	971,5	147,9
transport xizmatlari	1 615,1	110,0
<b>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</b>	<b>1 520,6</b>	<b>108,3</b>
yashash va ovqatlanish xizmatlari	187,6	103,7
savdo xizmatlari	2 307,8	105,3
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	225,2	102,1
ta'lim sohasidagi xizmatlar	239,7	103,8
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	77,5	107,7
ijara xizmatlari	196,4	103,5
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	247,6	100,0
shaxsiy xizmatlar	253,2	103,8
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	144,6	129,8
boshqa xizmatlar	264,2	116,4

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar (147,9 %), me'morchilik sohasidagi xizmatlar (129,8 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (113,4 %), transport xizmatlari (110,0 %), sog'lirqni saqlash sohasidagi xizmatlar (107,7 %), savdo xizmatlari (105,3 %) xizmat turlarida qayd etildi.

### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %




Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (102,1 %), yashash va ovqatlanish xizmatlari bo'yicha (103,7 %), ta'lim xizmatlari (103,8 %) va kompyuterlarni ta'mirlash xizmatlari (100,0 %) kabi xizmat turlarida kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida uning ulushi (32,6 %)ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport

xizmatlari (22,8 %), moliyaviy xizmatlar (13,7 %), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (5,0%) egallaydi.


### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, %



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida savdo xizmatlari hajmi 2 307,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi (105,3 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 377,7 mlrd. so'mga oshdi. Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

## Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega.



2019-yil yanvar-oktyabr oylarida uning ulushi 83,6 % ni tashkil etadi. Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 11,6 % ga etdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,8 % ni egallaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatish uchun zarur. Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

Yanvar-oktyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 357,9 mlrd. so'mni tashkil etdi. Joriy yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sishi 40,4 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'ldoshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,8 % ni tashkil etadi.

### 2019-yil yanvar-oktyabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, %

